



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

QIZAMIQ KASALLIGINING AHOLI ORASIDA TARQALISHINI OLDINI OLISHNING ENG SAMARALI YO‘LI BU VAQTIDA EMLANISH.

Sharipova N.Q.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali

Dolzarbliqi. Qizamiq yuqori yuqumlilik darajasiga ega, og‘ir kechuvchi o‘tkir infeksiya virusli kasallik bo‘lib, yer yuzida bolalarning o‘limiga sabab bo‘ladi. Kasallikning yuqish yo‘li asosan havo-tomchi orqali, ya‘ni bemor yo‘talganda, aksirganda, gapirganda havo oqimi bilan tarqalishi mumkin. Kasallikning simptomlari quyidagicha bo‘ladi: tana haroratining 40.5 C darajagacha ko‘tarilishi, umumiy intoksikatsiya, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatlar va yuqori nafas yo‘llarining shamollashi, konyunktivit va o‘ziga xos dog‘li-papulali toshmalar toshishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Qizamiqqa qarshi emlash amaliyotiga kiritilgunga qadar, ya‘ni o‘tgan asrning 60-yillarigacha har yili minglab bolalar qizamiq bilan kasallanib, uning asoratidan nobud bo‘lar edi. Butun dunyoda, shuningdek O‘zbekistonda 1963-yildan boshlab qizamiqqa qarshi vaksinani sog‘liqni saqlash tizimida Milliy emlash kalendariga kiritilishi va bolalarni emlash qamrovi tufayli ularning sog‘lom voyaga yetishi, uzoq umr ko‘rishiga zamin yaratadi. 2000-2017 yillarda butun dunyoda 15.6 mln bola qizamiqqa qarshi vaktsina bilan emlanganligi tufayli o‘limdan asrab qolingani, shu bilan qizamiqqa qarshi vaksinatsiya tibbiyot sohasidagi eng samarali yo‘l ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Qizamiq kasalligining tarqalishini oldini olish uchun butun jamiyatni emlash darajasi yuqori bo‘lishi kerak. Agar jamiyatda aholining katta qismi emlangan bo‘lsa, kasallikning tarqalish ehtimoli kam bo‘ladi.

Qizamiq kasalligining oldini olishda yagona chora kasallikka qarshi emlashdir. Milliy emlash kalendariga asosan, qizamiqqa qarshi bolalarni KPK- qizamiq-parotit-qizilcha vaksinasi bilan rejali emlash 1 yoshda va 6 yoshda oilaviy poliklinikalar emlash xonasida xavfsiz emlash bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi oshirilgan tibbiyot xodimi tomonidan o‘tkaziladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qizamiqqa qarshi vaksinaning 2 ta dozasi 97% himoyani ta‘minlaydi. Bolalarning 5-15 foizida vaktsina kiritilgandan so‘ng qizamiq belgilari paydo bo‘ladi: yo‘tal, burun oqishi, tana haroratining ko‘tarilishi, yuzga mayda toshmalar toshishi. Ammo bu bola kasallik yuqtirib olgan degani emas, barcha belgilar bir necha kun ichida o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

O‘tgan 2023 yilning noyabr-dekabr oylarida O‘zbekistonda qizamiqqa qarshi immunitetni mustahkamlash maqsadida 6 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan 3 mln 300 ming nafar bolani epidemiologik ko‘rsatmaga muvofiq KK-qizamiq-qizilcha vaksinasi bilan ommaviy emlash qamrovi tadbirlari amalga oshirildi. Qizamiq bemori bilan muloqotda bo‘lgan aholi va bolalar orasida (kasallik xuruj qilganda, bemor bilan muloqot kuzatilganda va ushbu xavfli) kasallikni profilaktika qilish maqsadida 6 oylikdan 30 yoshgacha qizamiqqa qarshi (qo‘shimcha tarzda) epidko‘rsatma asosida emlanish mumkin.

Xulosa. Qizamiq vaktsinasini olish shaxsiy salomatlikni himoya qilish bilan birga, jamiyatda qizamiq kasalligining tarqalishini sezilarli darajada cheklashga yordam beradi. Vaktsina nafaqat qizamiqning o‘zi, balki uning og‘ir asoratlari-pnevmoniya, ensefalit va hatto o‘lim xavfini ham sezilarli darajada kamaytiradi.